

# SAVOD O'RGATISH DAVRIDA O'QUVCHILARNING NUTQINI O'STIRISH

**Suyunova Marjona**

*Jizzax Davlat pedagogika universiteti 2 kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Boshlang'ich sinfda og'zaki nutqni shakllantirishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, bu borada ota-ona va tarbiyachining mas'uliyati, dars jarayonida turli xil metodlardan foydalanish ularga qay usulda tushuntirishi kerakligi haqida yoritilgan*

**Kalit so'zlar:** *gap, hikoya, matn, savod o'rgatish, sheva, so'z birliklari*

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan.

Savod o'rgatish darslarida ham yuqoridagi uch yo'nalish bo'yicha ish olib boriladi. Ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi, shu jumladan savod o'rgatish ham o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq holda uyushtiriladi. Savod o'rgatish davridagi ishlarning miqyosi keng bo'lib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, predmet va sujetli rasm yuzasidan suhbat va shu kabilar bilan bog'lanadi. Bu davrda o'quvchilar nutqini o'stirishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) o'quvchilar nutqidagi kamchiliklarni to'g'rilash;
- 2) ularning tasavur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'liq holda lug'atini boyitish;
- 3) o'quvchilar nutqidagi ayrim so'zlamning ma'nosiga aniqlik kiritish;
- 4) gap va uch-to'rt gapli kichik „hikoya« (bog'lanishli nutq)ni og'zaki to'g'ri tuzish ko'nikmasini o'stirish.

Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so'zni ongli ishlatishga; ikkinchidan, turli sodda yig'iq gap (Bolalar yuguryaptilar), sodda yoyiq gap (Marjona maktabga bordi), uyushiq bo'lakli gap (Visola yurdi va chopdi) tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy mashqlar yordamida egallaydilar.

Bolalarning shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiatni kuzatishlari nutq o'stirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Narsalar, uy-ro'zg'or buyumlari, o'simliklar, hayvonlar qiziqarli suhbat uchun mavzu bo'lib xizmat qiladi. Suhbat jarayonida bolalarda hosil qilingan tasavvur asosida aniq tushunchalar shakllanadi.

Birinchi sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda bolalarning o'yin va ermaklari, rasm ko'rish va „Bu nima?, Bu kim?, U nima qilyapti?« kabi savollar asosida suhbatdan ham foydalaniladi.



Savod o'rgatish davrida nutq o'stirishga oid ish turlariga atrofdagi jonli predmetlarning nomini, ularning belgilarini aytish, predmetlarni ma'lum belgilari asosida guruhlash kabi mashqlar kiradi. Masalan, o'qituvchining topshirig'iga muvofiq, ma'lum bir mavzuda (kuz, mevali bog', sinf, maktab haqida) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa shunday yig'iq gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gapga aylantiradilar. Ular o'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar. O'qish darslarida o'quvchilar rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o'qituvchi savoliga to'liq javob berishga o'rganadilar. Alifbedagi rangli, chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilarning talaffuzi ustida ishlash ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki ko'pgina bolalarning talaffuzida kamchiliklar bo'ladi: bir tovush o'rniga boshqasini (sh o'rniga s, u o'rniga i) talaffuz qiladilar, chuchuk til bilan duduqlanib gapiradilar, so'zdagi ayrim tovushni tushirib yoki boshqa bir tovush qo'shib talaffuz qiladilar, tovushlar o'rnini almashtirib qo'yadilar va hokazo. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun logopedlar maxsus mashqlardan foydalanadilar. O'qituvchi ham har bir darsda va darsdan tashqari vaqtda o'quvchilar talaffuzini kuzatib borishi, kamchiliklarni aytib, to'g'ri talaffuz namunasini ko'rsatishi lozim.

Savod o'rgatish davridagi har bir dars jarayonida nutq o'stirish ishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shundagina o'quvchilarda adabiy nutq (shevalar ta'sirisiz, adabiy me'yor asosidagi nutq) ko'nikmalari shakllanadi va malakaga aylanadi. Turkiy dunyo faxri bo'lgan mutafakkir ajdodimiz Alisher Navoiy "Insonni so'z ayladi judo hayvondin, Bilki, guhari sharifroq yo'q ondin" der ekan, so'zlash orqali inson aziz bo'lganini uqtiradi. Lekin hayvondin farqlagan jihat faqat so'zlash qobiliyatigina emas, ayni paytda tom ma'noda madaniyat va salohiyat bilan so'zlash har bir insonni bezashiga ishora qilinmoqda. Shu bois odam bolasini kichik yoshdan to'g'ri, to'liq va o'rinli so'zlashga o'rgatiladi. Lekin bu o'z holicha, stixiyali tarzda yuz beradi deb qarash noto'g'ri, chunki hamma tarbiya turida bo'lgani kabi og'zaki nutq tarbiyasi ham o'z yo'rig'i, usullariga ega. Bolalar kichik yoshdan anglashlari kerakki, insonning ichki dunyosi, ma'naviy qiyofasi, xulq-atvori, muomalasi, odob-axloqi, madaniyati uning tili orqali namoyon bo'ladi. Chunki har qanday kishining madaniyatligi, odobi, bilim darajasi, fahm-farosati, fikrlash doirasining kengligi yoki torligi, katta hayotga tayyor yoki tayyor emasligi uning nutqida o'z aksini topadi. Kimning tili boy bo'lsa, kim so'zlarni adabiy til asosida to'g'ri, aniq, ravon, ifodali va tushinarli talaffuz qilsa, o'z ona tiliga chuqur hurmat va extirom bilan qarasa, u bilimli sanalib, kishilar orasida obro'-e'tibor qozonadi. Hayotni kuzatar ekanmiz, so'z boyligi kam, tili qashshoq, so'zlari qovishmagan, o'z fikrini aniq ifoda eta olmaydigan yoshlar ham uchrab turishina guvoh bo'lamiz. Ba'zi yoshlar



orasidagi ruscha, ayrimlari esa ko'pchilik tushunmaydigan so'zlarni qo'shib odamlar orasida gapiradilar. Yoshlikdan badiiy adabiyotga mehr qo'yish, uni o'qishga ko'nikma hosil qilish va ko'p o'qish va o'z fikrlarini kerakli joyda to'g'ri ayta bilishi yuksak ma'naviyatlilikni, boy, go'zal, ta'sirchan tilga ega bo'lishni ta'minlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining asosiy yo'nalishlaridan biri nutq, o'qish va savodga tayyorgarlikdan iboratdir. Bu umumiy vazifa – "Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik" mashg'ulotlari oldida quyidagi maxsus vazifalar qo'yiladi: og'zaki nutqning asosi bo'lmish tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish; asta-sekin so'z zaxirasini boyitish, mustahkamlash va faollashtirish; og'zaki nutqning grammatik jihatdan to'g'ri shakllanganligiga e'tibor qaratish nutq ravonligiga e'tibor berish; maktab ta'limiga nutqiy tayyorlash. Og'zaki nutqini o'stirish bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda asosan bolalarning so'zlarni to'g'ri bog'lash, qo'shimchalarni o'rinlarini ishlatish, tovushlar talaffuzi aniqligiga diqqat qilish muhim sanaladi. Shuningdek, gaplar faqat sodda gaplardan iborat bo'lib qolmasligi, o'rni bilan qo'shma gaplarni qo'llash, gapirganda so'z turkumlarini, xususan, sonni otga, sifatni otga, sifatni fe'lga to'g'ri bog'lash malakalarini takomillashtirish, so'zlarning mantiqiy muvofiqligiga, shuningdek, ravon gapirishga, mustaqil hikoya qilishga e'tibor beriladi.

### **Xulosa**

Og'zaki nutqini o'stirishda mustaqil hikoya qilishga o'rgatish katta o'rin egallaydi. Shu asnodda hikoya o'qitish jarayonida turli xil lug'atlar asosida kelgan so'zlar bilan ishlash ularni o'quvchilarga ma'nosini tushuntirib berish va har bir hikoyani faqatgina o'qitmasdan uning ma'nosini ham tog'ri tushuntirish va har bir hikoyaga o'zining shaxsiy fikirini matn holatida yozishni o'rgatish lozim. Ko'proq badiiy asarlarga mehr berish va ularni ko'proq o'qishni ta'kidlash, o'quvchilarning yoshiga asoslangan holda ularga badiiy asarlarni berish hamda sahna ko'rinishlari orqali dars jarayoni tashkil etish kerak va uni amalda qo'llasa, dars jarayoni va o'quvchilarning nutqi to'g'ri shakllanadi. Birgina nutqi emas balki ularning ongi va tafakkuri, ko'z xotirasi, aqli rivojlanadi. Yetuk shaxs darajasiga erishadi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Vahobova F.N, Rasulova M. SH. va boshqalar. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent: 2008.
2. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi o'stirish metodikasi. Toshkent: 2006.3. Safarova R. va boshqalar. Savd o'rgatish darslari. Toshkent: 2003
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)